

## BUXGALTERIYA HISOBINING PREDMETI VA METODI

*Tursunov Said Pirimqulovich*

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti, Agrobiznes,  
buxgalteriya hisobi va raqamli texnologiyalar kafedrası o'qituvchisi*

*Fan: Bugalteriya hisobi va soliqqa tortish.99-752-16-55*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxgalteriya hisobining predmeti va metodi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxgalteriya, mulkchilik, ta'minot, korxonalar, daromad, mablag'.

Mulkchilik va tarmoq shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalarda buxgalteriya hisobi yuritiladi. U korxonadagi xo'jalik mablag'larining tuzilishi, joylanishi, qaysi manbalardan tashkil topganligi hamda xo'jalik jarayoni va muomalalari ta'siri ostida bo'layotgan o'zgarishlarning borishi ustidan uzluksiz nazorat olib boradi. Buxgalteriya hisobida korxonalar ixtiyorida mablag'lar, xo'jalik jarayoni va uning ta'siri ostidagi xo'jalik mablag'larining hajmi, tuzilishi, joylanish va tayinlanishidagi sodir bo'ladigan o'zgarishlar aks ettiriladi hamda korxonalar xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari aniqlanadi. Buxgalteriya hisobi vositasida korxonalar xo'jalik faoliyati jarayoni, mablag'lari aks ettiriladi hamda ularning tashkil topish manbalari nimalardan iborat ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi. Shuni ham borki, buxgalteriya hisobida faqat pul o'lchovida foydalanish mumkin bo'lgan xo'jalik jarayoni va mablag'larigina o'z aksini topadi. Pul ifodasiga ega bo'lmagan korxonalarining mulklari buxgalteriya hisobida o'z aksini topmaydi.

Agar ularning qiymati aniqlanib, pulda ifodalangan bo'lsa, u holda bular ham buxgalteriya hisobida hisobga olinadi. Demak, buxgalteriya hisobining predmeti korxonaning pul ifodasida aks ettiriladigan xo'jalik mablag'lari, shu mablag'lar manbalari, ularning xo'jalik faoliyati va moliyaviy natijalaridir. Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa tarmoqlari korxonalarida, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, noishlab chiqarish tarmog'i korxonalarida va umuman olganda barcha korxonalar, tashkilot hamda muassasalarda yuritiladi. Xozirgi vaqtda iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va butun iqtisodiyot bo'yicha buxgalteriya hisobotlarini yig'ish va bu ma'lumotlarni kerakli ko'rsatkichlarda guruhlashtirish natijasida hamma korxonalarining xo'jalik mablag'lari, ularning tuzilishi, joylanishi va tayinlanishi, xo'jalik faoliyati haqidagi buxgalteriya hisobining ma'lumotlariga ega bo'ladilar. Turli mulkchilik shakllarida faoliyat yurituvchi korxonalarining vazifasi, o'z faoliyati jarayonida mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish) dan iborat. Bu vazifani bajarish uchun birinchi navbatda ta'minot jarayonini bosib o'tishi, ishlab chiqarish va undan keyin esa uni sotish (realizatsiya) jarayoniga kelishi kerak. Bu uchta bosqich har doim bir

birlarining o'rnini egallaydi va shu bilan korxonada mablag'lar (fondlar) ning uzluksiz aylanishini hosil qiladi. Mablag'lar aylanishidagi asosiy bosqich (faza) bu moddiy boyliklarni yaratish jarayoni sodir bo'ladigan ishlab chiqarish bosqichidir. Bu yerda ishlab chiqarilgan buyumlar nafaqat tashqi ko'rinishi va xususiyati bilan, balki qiymatining hajmi bilan farq qiladigan yangi mahsulot tayyorlanadi. Yangidan tayyorlangan mahsulot, sarflangan ishlab chiqarish vositalarining xodimlar mehnati bilan yaratilgan zaruriy (ish haqi) va qo'shimcha mahsulot qiymati (sof daromad)dan tashkil topgan yangi qiymatlardan iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonini buxgalteriya hisobida aks ettirish, birinchidan, unga qilingan xarajatlar sarflangan mablag'lar (mehnat buyumlari va mehnat vositalari amortizatsiyasi), ishchi kuchi (ish haqi shaklidagi zaruriy mehnat) va ikkinchidan, ishlab chiqarilgan mahsulotlar tayyor buyumlarda qayd etiladi. Ishlab chiqarish xarajatlari pul shaklida hisobga olinadi. Bu ishlab chiqarish xarajatlarini yagona o'lchov birligida ifodalash, tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi haqida yig'ma ko'rsatgichni olish uchun zarur. Pul shakli bilan birgalikda, moddiy xarajat sarflari buxgalteriya hisobida tegishli tartibda natura va mehnat o'lchagichlarda ham ko'rsatiladi. Bu o'lchagichlar pulda baholash uchun asos hisoblanib, ulardan xarajatlar hajmini boshqarish uchun foydalaniladi.

Buxgalteriya hisobi mehnat vositalari va ishchi kuchi sarfini aks ettira turib, ishlab chiqarish jarayonining boshqa tomonini anglatadigan ishlab chiqarish iste'molini ham o'z ichiga oladi. Ko'pgina korxonalarda ishlab chiqarish vositalari birdaniga tayyor mahsulotga aylanmaydi. Chunki ularga mehnatning ta'siri yangitdan yaratilgan mehnat maqsuli sifatida, ma'lum vaqtni talab qiladi. Shu vaqtning o'tishi davomida ular tugallanmagan ishlab chiqarish shaklida bo'lib turadi. Ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan milliy daromadni taqsimlash jarayoni vujudga keladi. Taqsimlash paytida zaruriy mahsulot (korxonada xodimlarining ish haqi)ning puldagi ifodasi, korxonada va davlatning markazlashtirilgan sof daromadi (qo'shilgan qiymat solig'i, akviz solig'i, foydadan ajratmalar va hokazo)ning summasi hisoblab chiqiladi.

Bunda korxonaning foydasi buxgalteriya hisobida keyinroq, ya'ni realizatsiya tugagandan so'nggina aniqlanadi va qayd qilinadi. Korxonaning mablag'lari boshqa bosqichlarda, ya'ni muomala jarayonida sodir bo'ladi. Bu korxonada ta'minoti va tayyor buyumlarni sotish bosqichlaridir. Ta'minot doirasida korxonada pul mablag'lari hisobiga o'ziga zarur bo'lgan moddiy boyliklarni sotib oladi. Realizatsiya bosqichida ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan mahsulotning iste'molchilar (xaridorlar)ga sotish sodir bo'ladi. Bu bosqichning yakunida korxonada zaxiralari (mablag'lari) yana pul shakliga kiradi. Korxonaning ta'minoti va realizatsiya jarayonlarini aks ettirishda buxgalteriya hisobi quyidagilarni qayd qilishi zarur: jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish va mahsulot realizatsiyasiga qilingan xarajatlar; ta'minot jarayonida xarid qilinadigan buyumlar; sotish uchun mo'ljallangan va realizatsiya jarayonida joylashgan ishlab chiqarish mahsulotlari

hamda sotilgan buyumlar uchun korxonalar tomonidan olinadigan pul mablag'leri va h.k.. Sotilgan mahsulotning summasi ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar summasidan korxonalar tomonidan belgilangan sof daromad miqdoriga ko'p bo'ladi. Shunday qilib, realizatsiya jarayonining yakunlanishi moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan sof daromadni taqsimlash imkonini beradi. Bu yerda buxgalteriya hisobi davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan, korxonalar tomonidan olingan summasi, qo'shilgan qiymat solig' aksiz solig'i, foyda (daromad) solig'i aniqlanadi va qayd qilinadi. Realizatsiya jarayoni tugagandan so'ng korxonalar tegishli organlarga (byudjetga byudjetdan tashqari jamg'armalarga, banklar, mol yetkazib beruvchilar va hokozolarga) berilishi kerak bo'lgan summalarni o'tkazish imkoniga ega bo'ladi. Tovar ishlab chiqarish sharoitida korxonalar mablag'larining aylanish davri uning boshqa korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan xo'jalik aloqalarini yuzaga keltiradi. Bunday aloqalar korxonada mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan ta'minot hamda mahsulot sotishni amalga oshirishda, bosh (ona) kompaniya bilan unga u yoki bu mablag'larni topshirish yoki olib qo'yish paytida, bank muassasalari bilan ulardan ssudalar olishda, byudjetdan tashqari tashkilotlar bilan ijtimoiy ehtiyojlarga doir hisob kitoblarda yuzaga keladi. Xo'jalik aloqalari buxgalteriya hisobida korxonalar mablag'larini aylanish davrining tegishli bosqichlari aks ettirilayotgan paytdan qamrab olinadi.[1]

Ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchini ishlab chiqarish maqsadlari uchun qilingan iste'moldan tashqari, korxonada noishlab chiqarish iste'mollari ham sodir bo'ladi. Noishlab chiqarish iste'moliga korxonalar tasarrufidagi mablag'leri (fondlari)dan foydalanish kiradi. Ularning tarkibiga uyjoy, maishiy xizmatlar, sog'liqni saqlash va boshqa shu kabi mablag'leri kiradi. Bu mablag'larning holati va ulardan foydalanishni ham buxgalteriya hisobida hisobga olinadi. Korxonalar mablag'leri (fondlari)ning aylanish davri shundan iboratki, ular ishlab chiqarishga, ishlab chiqarish tovarlarga, tovarlar esa yana yul shakliga aylanadi. Demak, mablag'larning aylanish davri faqat uning har xil bosqichlari (fazalari) ketma ket uzluksiz kelib tursagina sodir bo'lishi mumkin. Mablag'larning aylanish davrini to'g'ri tashkil qilish, ularni har bir bosqichini aniq bo'lgan mudqatlarda bo'lishini talab qiladi. Korxonalarda vujudga keladigan jarayonlar odatda har doim, deyarli uzluksiz sodir bo'ladi. Shuning uchun ham, korxonalar har bir bosqichda, ya'ni uch shakldagi pul, ishlab chiqarish va tovar mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga bu mablag'larning miqdori korxonalar faoliyatining hajmiga to'g'ri kelishi va har bir bosqichda normal ishni ta'minlashi kerak. Barcha jarayonlar ta'minot, ishlab chiqarish va realizatsiya alohida xo'jalik muomalalaridan iborat. Masalan, ta'minot va realizatsiya qator xarid qilish sotish hodisalaridan tashkil topadi. Ishlab chiqarishda mehnat buyumlarini mahsulot tayyorlashga sarflash, korxonalar xodimlariga bajargan ishlari uchun ish haqi hisoblash, mehnat vositalaridan mahsulot ishlab chiqarishda

foydalanganlikuchun amartizatsiya ajratmalarini hisoblash va hokazolarni qayta qayta qiymatda amalga oshiradi. Har bir muomalaning asosiy mazmuni korxonamablag'larining harakati,ularning shakllarining o'zgarishidan iborat. Masalan, materiallarni xarid qilishda korxonapul mablag'lari o'rniga o'zlariga kerak bo'lgan mehnat buyumlarini oladi va ularni sarflashda mehnat buyumlarni ishlab chiqarish jarayoni yuzaga kelib, tayyor mahsulot olinadi.Xo'jalik muomalalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish boshqarish ob'ekti haqida kerakli axborotlarni olish, mablag'lardan samarali foydalanish darajasini baholash imkonini beradi. Shuning uchun ham ular buxgalteriya hisobining asosiy mazmunini tashkil qiladi.Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, o'z sarmoyasi, rezervlar, daromad va xarajatlar, foyda va zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob'ektlari hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining ob'ektini umumlashtirilgan holda quyidagilar tashkil etadi: xo'jalik mablag'lari, xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalari, xo'jalik jarayonlari va moliyaviy natijalar.[2]

Korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi uchun ma'lum turdagi mablag'larga ega bo'lishi kerak. Ular xo'jalik jarayonida turli funksiyalarni bajaradi va shuning uchun ular buxgalteriya hisobida xo'jalik mablag'lari deb yuritiladi. Buxgalteriya balanchida xo'jalik mablag'lari aktivlar sifatida e'tirof etiladi.Aktivlar –sub'ekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir. Korxonata, tashkilot va muassasalarida aktivlar asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

Uzoq muddatli aktivlar

Aylanma (joriy) aktivlar.

Uzoq muddatli aktivlar deb, uzoq muomala muddatiga ega bo'lgan (12 oydan ortiq) va investitsiyalash maqsadida saqlab turilgan hamda hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida sotilishi mumkin bo'lmagan aktivlardir. Ularning tarkibiga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddali moliyaviy investitsiyalar, kapital quyilmalar va boshqa uzoq muddatli aktivlar kiradi.Aylanma (joriy) aktivlar deb, asosan qayta, takroriy sotish maqsadida yoki qisqa muddatda ushlab turilgan va undan hisobot kunidan keyingi 12 oy mobaynida foydalanish kutilayotgan aktivlarga aytiladi. Aylanma aktivlar tarkibiga ishlab chiqarish zahiralari, tayyor mahsulot va tovarlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar hamda joriy debitorlik qarzlari kiritiladi.Korxonamablag'lari har xil manbalar hisobiga shakllanadi. Buxgalteriya balansiga binoan xo'jalik mablag'larning tashkil topish manbalari 2 turga bo'linadi: O'zlik mablag'larining manbalari; Majburiyatlar.

O'z mablag'larining manbalari tarkibiga korxonani tashkil etish paytida hosil qilingan ustav kapitali, shutsningdek, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, maqsadli tushumlar, korxonaning ishlab topilgan sof foydasidan shakllantirilgan boshqa vositalar kiradi. Majburiyalar shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlaridir yoki muayyan hatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir. Har bir korxonaga muayyan turdagi faoliyatni amalga oshirishga ixtisoslashgan. Biron-bir turdagi faoliyatni amalga oshirish, xususan, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz davom etib turishi uchun avval ta'minot, keyin esa sotish jarayonini amalga oshirish lozim. Ta'minot jarayoni korxonaga ishlab chiqarish faoliyatining normal borishi uchun muntazam ravishda xom ashyo, material, yoqilg'i, shuningdek, turli xildagi asosiy vositalarning xarid qilib turilishi zarurligi bilan izohlanadi. Bu jarayon ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur vositalarni mol yetkazib beruvchilardan pulga sotib olib, korxonaga keltirish bilan chegaralanadi. Ishlab chiqarish jarayoni moddiy ne'matlar yaratish bilan bog'liq bo'lgan eng murakkab xo'jalik muomalalarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda mehnat buyumlari, mehnat vositalari hamda ishchi kuchi yordamida iste'mol qiymatiga ega bo'lgan moddiy ne'matlar ishlab chiqariladi.[3] Sotish jarayoni xo'jalik mablag'lari aylanishining so'nggi bosqichi bo'lib, bu bosqichda korxonaga tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar xaridor va iste'molchilarga shartnomalar asosida yetkaziladi. Sotish jarayon xo'jalik jarayonini tugallaydi va yana yangidan ta'minot jarayoni boshlanadi hamda bu jarayon oldingiga qaraganda kengroq tus oladi.[1]

### **Xulosa**

Hisobot davridagi korxonaga faoliyatining yakuniy ko'rsatkichi bo'lib moliyaviy natija hisoblanadi. Moliyaviy natija – xo'jalik yurituvchi sub'ektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir. Moliyaviy natija, ya'ni foyda yoki o'lchashda daromadlar va xarajatlar bevosita daxldor elementlar hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlar quyidagicha aniqlanadi:

Daromadlar – bu hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlar oqimi yoki ko'payishi shaklida o'sishi yoki passivlarni qatnashchilarning kapitaldagi omonatlaridan farq qilduvchi o'sishiga olib keluvchi kamayishidir;

Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o'rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

Daromadlar va xarajatlarni aniqlash ularning asosiy xususiyatlarini belgilaydi, shu bilan birgalikda ular moliyaviy natija, ya'ni foyda yoki zararni aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Hisobot davrida olingan barcha daromadlarning xarajatlaridan ortishi foyda sifatida e'tirof etiladi. Agar korxonaning hisobot davridagi barcha xarajatlari barcha daromadlaridan ortiq bo'lsa, u holda moliyaviy natija zarar sifatida

e'tirof etiladi. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga binoan Uzbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan xoh O'zbekiston respublikasi hududida, xoh uning tashqarisida joylashgan barcha xo'jalik sub'ektlari yuridik shaxslar, ularning sho'ba korxonalar, filiallari, vakolatxonalar va boshqa tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobi sub'ektlari hisoblanadilar. Yuridik shaxs hisoblanmaydigan, ammo bankda schetga va tugallanmagan balansga ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlari ham buxgalteriya hisobi sub'ektlari hisoblanadilar va hisobni «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunga muvofiq yuritadilar. Yuridik shaxs hisoblanmaydigan, ammo bankda schetga va tugallanmagan balansga ega bo'lgan xo'jalik sub'ektlari ham buxgalteriya hisobi sub'ektlari hisoblanadilar va hisobni «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunga muvofiq yuritadilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamatov Z. T. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" Toshkent-2011[1]
2. Xolbekov R.D. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" Toshkent-2013[2]
3. Xoshimov "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" Toshkent-2003[3]
4. Dustmurotov R.D. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" Toshkent-2013[4]